

TIQXMMI Buxoro filialiga tashrif

TIQXMMI, Ilmiy bo'lim boshlig'i B.Matyakubov TIQXMMI Buxoro filialiga tashrif jarayonida, direktor Sh.J.Imomov bilan uchrashdi. Buxoroga tashrif bo'yicha xizmat safar rejalari bilan filial rahbariyati to'liq tanishtirildi.



Shu kunning o'zida rejadan tashqari TIQXMMI Buxoro filialining "Suv xo'jaligi va melioratsiya" kafedrasini mudiri I.Xudayevning taklifiga B. Matyakubov tashrif buyurdi. Tashrif jarayonida 006.01.02 - "Melioratsiya va sug'orma dexqonchilik" ixtisosligi bo'yicha doktorantlarning 6 oylik hisobotlari tinglandi.



Xisobot yakunida prof.B.Matyakubov mustaqil tadqiqotchilar, doktorantlar xamda magistrlar bilan uchrashdi. Xamda kelgusidagi bajarilishi kerak bo'lgan rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ularni amalga oshirish bo'yicha tushunchalar berib o'tdi. Shu bilan bir qatorda qishloq va suv xo'jaligi tizimida mavjud bo'lgan muammolar xamda ularni yechish usullari, ilmiy-inovatsion g'oyalar va loyihalarni shakllantirish bo'yicha o'zaro suhbatlashdi.

**T.f.d.,prof.v.b. F.Jo'raev TIQXMMI Buxoro
filialai ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
direktor o'rinbosari.**